



BOBUR SHAXSINING INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI TALQINI

G'aniyeva Rushana

Samarqand davlat chet tillar instituti

magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10068220>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2023

Accepted: 30th October 2023

Online: 31th October 2023

KEY WORDS

Bobur, inglizzabon adabiyot, tarixiy shaxs, talqin, Boburnoma, muallif fikri.

ABSTRACT

Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizdan biri bo'lmish, tarixda o'chmas iz qoldirgan, buyuk qalb sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur to'g'risidagi inglizzabon olimlar tomonidan yaratilgan asarlar haqida so'z boradi. Shuningdek, bu maqolada chet el adabiyotshunosligida Bobur shaxsining talqini xususidagi fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Har bir millat borki, o'zining kelib chiqish tarixi, madaniyati va milliy urf-odatlar bilan bir qatorda manashu tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolariga ham egadir. Shu jumladan, bizning xalqimiz ham faxr va g'urur tuyg'ulari bilan yodga oladigan, bugungi erkin va farovon hayotimiz asoschilari bo'lgan ko'plab tarixiy shaxslar, ma'rifatparvar insonlar, davlat arboblari va shoiru ulamolari bilan iftixor etib kelmoqda. Shunday ulug' allomalar orasida nafaqat o'z zamonisidagi, balki bugungi kun yoshlariga ham har taraflama namuna bo'la oladigan adolatpesha, serqirra iste'dod sohibi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur muhim o'rin egallaydi.

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo (1483-1530) o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, temuriy shahzoda, adolatli shoh va boburiylar sulolasi asoschisi edi. Insoniyat tarixida Boburchalik shaxsiy imkon, iqtidor va fazilatlari betakror kishilar juda noyobdir. Uning shoh bo'la turib insoniy fazilatlarni unutmaganligi, davlat boshqaruvini adolatli hukmdor sifatida yuritganligi, vatan ravnaqi uchun qilgan behisob bunyodkorlik ishlari, oilada namunali farzand, mehribon uka, g'amxo'r umr yo'ldosh, fidoyi ota bo'lganligi va albatta, ilmu fan sohasida yaratgan ajoyib durdona asarlari tahsinga sazovardir.

Hayotlik chog'ida o'z yurtida qadr-qimmat topmagan Bobur O'zbekiston mustaqilligiga erishgandan so'ng haqiqiy hurmat va ehtiromga sazovar bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoniga ko'ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali ravishda nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomiga universitet, teatr, kutubxona, milliy bog' («Bog'i Bobur») kabi joylar barpo qilindi. Bobur milliy bog'i majmuasida «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etildi. Shahar markazida va Bobur bog'idagi yodgorlik majmuida buyuk shoirga haykal o'rnatildi. Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati,



Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'sis etildi. Shunday imkoniyatlar ostida Bobur hayoti va uning faoliyatini o'rganish, badiiy va ilmiy asarlar yaratish, hujjatli filmlar olish hech qanday tazyiqlarsiz amalga osha boshladi. O'zbek adabiyotida Bobur va uning hayot-ijodiga bag'ishlangan roman, qissa va dostonlar Oybek, P.Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonov, X.Davronlar tomonidan yaratildi. Bir talay o'zbek olimlari tomonidan, jumladan A.Fitrat, M.Shayxzoda, H.Yoqubov, S.Mirzayev, A.Qayumov va boshqalar Bobur hayot faoliyatini o'rganishda chuqur izlanishlar olib borib o'zbek xalqiga uni yanada tanitishga ulkan hissa qo'shdilar.

Shoh va shoir, Boburning hayot kechinmalari faqatgina o'zbek olimu yozuvchilarinigina qiziqtirib qolmasdan, bir qancha jahon adabiyoti vakillarining, shuningdek, ingliz adabiyotshunoslarining ham sevimli mavzusiga aylanib bo'lgan. Dastlab, Bobur va boburiylar avlodining tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha Yevropada yaratilgan birinchi asar "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi" deb nomlanib, 1680-yilda fransuz sayyohi Franstsua Berne tomonidan yaratilgan. Oradan bir necha yillar o'tib, 1697-yilda "Bobur yoki Bobar" nomli maqolasi bilan fransuz sharqshunos olimi Bartolame Erbalo Molenli G'arb kitobsevarlarini Bobur haqidagi ma'lumotlar bilan bahramand etdi. Olim bu maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziquvchi ilg'or fikrli kishi bo'lgani haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, G'arbiy Yevropada XIX asrda boshlangan Bobur hayotiy faoliyati va ijodini o'rganish ishlarida fransuz va ingliz sharqshunoslarining xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, U.Erskin, S.M.Edwards, A.Bevirij, R.M.Kaldekot, CH.Stori, E.Xolden, L.U.king, F.J.Talbot, D.Ross, J.Elfinitsion, I.Mano, F.Ko'prulu, Z.Mansuriy, A.K.Singxa, R.Sharma, R.R.Arat, H.Boyir, Sh.Yorqin, N.Ilminskiy, N.Veselovskiy, A.Samoylovich, M.Sale, I.V.Stebleva kabi xorijiy olimlar ham izlanishlarda ulkan hissa qo'shdilar. Ingliz sharqshunos olimlari Jon Leyden va Uiliyam Erskinlar 1827-yilda Boburning hayot tajribalarini qamrab olgan shoh asari bo'lmish "Boburnoma" ni ingliz tiliga tarjima qildilar. Ingliz tarixchi olimi U.Erskin birgina tarjima asar bilan cheklanib qolmasdan, 1995-yilda "Bobur Hindistonda" nomli asarini yozib "Cho'lpon" nashriyotida bosmadan chiqardi. "Boburnoma" ning ingliz tilidagi tarjimasidan foydalanib Germaniyalik olim A.Kayzer 1878-yilda asarni nemis tiliga tarjimasi va Fransiyalik sharqshunos olim Pave de Kurtiyelning 1871-yildagi asarni fransuz tiliga tarjima qilishlari Yevropada Bobur shaxsiga bo'lgan qiziqishning ortishiga hamda Bobur va boburiylar saltanati to'g'risidagi turli tillarda asarlar yozilishiga sabab bo'ldi. 1826-1985-yillar davomida «Boburnoma» 4 marta ingliz (1826, 1905, 1921, 1922), 3 marta fransuz (1871, 1980, 1985), 1 marta nemis (1878) tiliga o'girilib, nashr etildi. Boburning hayoti va faoliyatiga doir o'nlab badiiy asarlar ham yaratildi. Bular orasida fransiyalik Flora Anna Stilning «Boburxon» (Parij, 1940), Fernard Grenardning «Bobur» (Parij, 1930), AQShlik Xarold Lembning «Bobur – yo'lbars» (Nyu-York, 1961) romanlari, Vamber Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk mo'g'ullar» (Nyu-York, 1980) esse-romani kabi asarlar dunyoga Bobur shaxsini tanitishda katta xizmat qildi. Undan tashqari Hindistonlik Muni La'l Bobur va boburiylar haqida 6 ta roman meros qoldirdi. Ulardan biri "Bobur: hayot va zamon" badiiy-xronik romani bo'lib, ushbu romanida Boburning "karim ut-tarafayn" ekanligini ota tomondan Amir Temurning avlodiga, ona tomondan Chingizxonning nasliga mansubligini asoslab, ikkala ajdodidan ham



g'oliblik ruhini meros qilib olganligini ta'kidlab o'tadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Muni La'l hind yozuvchisi bo'lsada inglizzabon adib bo'lgan va yuqoridagi asarini ham ingliz tilida taqdim etgan. Adib asarida Boburni bolaligidanoq yetakchilik qobiliyatiga ega ekanligi va ilk hukmronlik davrini boshlagan paytidayoq uning sarkardalik qobiliyati va harbiy iste'dodi kuchli bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Boburning harbiy mahoratini ko'klarga ko'targan yana bir ingliz yozuvchisi Stefan Meredit Edvards ham buyuk sarkarda haqida "Bobur: yozuvchi va jangchi" nomli asarini yaratadi. S.M.Edvardsning fikrlari Muni La'l qarashlari bilan uyg'un bo'lib, unda aytilishicha, Bobur jasorat va mardlikni turklardan, cheksiz energiya va kuch-qudratni esa mo'g'ullardan meros qilib olgan deydi. Edvards jismoniy jihatdan Bobur judayam baquvvat va chaqqon bo'lganligi, u ko'p marotaba o'z askarlari bilan ovga chiqib turganligi, bir kuni u changalzorlarda qirg'ovullar ovlagan bo'lsa, boshqa safar qo'llari jarohatlanganiga qaramay kiyikni kamon o'qlari yordamida qo'lga kiritgani, yana boshqa safar esa u Peshovar yaqinida karkidon ovlash chog'ida yovvoyi xo'tik ortidan quvlagani xususidagi qiziqarli voqealarni hikoya qiladi. Edvards asarida Boburning buyukligi uning do'stparvar va xalqsevarligida ekanligini aytib, ulug' ijodkorning shu fazilatlariga alohida e'tibor qaratadi. Bobur shaxsiyatining eng qimmatli va ko'zga ko'rinarli jihati – uning qarindoshlari va do'stlariga nisbatan cheksiz sadoqatida ekaligiga asosiy urg'uni beradi.

Bobur hayot-ijodi va boburiylar saltanatiga bo'lgan e'tibor va qiziqishlar butun jahon olimu sharqshunoslari va shuningdek, inglizzabon yozuvchi va shoirlari tomonidan bugungi kunda ham davom etmoqda. Ular tomonidan shunday tarixiy shaxs va sulola to'g'risida ko'plab asarlar va romanlari yaratilmoqda. Hususan, shoir, yozuvchi va dramaturg Farzona Mun ham Bobur va boburiy hukmdorlar haqida bir qator asarlar yaratgan jahon adabiyotining yetakchi namoyondalaridan biri hisoblanadi.

Farzona Mun kelib chiqishi Pokistonlik bo'lgan AQSh fuqorosi bo'lib, hozirda AQShning Ogayo shtatida yashab ijod qilib kelmoqda. Uning tarix, siyosat va falsafaga doir ko'plab asarlari AQSh, Kanada va Hindistonda chop qilingan. Farzona Munning Hindiston tarixiga oid asarlari orasida Bobur va boburiylar saltanati haqida ham bir nechta badiiy asarlar mavjud.

Farzona Munning Bobur to'g'risidagi ilk kitobi "Babur, The First Moghul In India" (Bobur Hindistondagi birinchi (mo'g'ul) hukmdor) deb nomlanadi. Yozuvchi ushbu asarida Boburning kelib chiqishi ikki buyuk sulola (Temuriylar va Chingizxon) bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tib, uning amalga oshirgan son-sanoqsiz bunyodkorlik ishlariga e'tiborini qaratadi. Boshqa millat farzandi bo'lishiga qaramay Boburning Qobul va Hindistonda hukmronlik qilgan paytlarida qilgan buyuk ishlari: saroylar, bog'lar, masjid va madrasalar qurilishi; Agradan Qobulgacha katta yo'l barpo etilishi, mamlakatni obod qilish yo'lidagi ko'plab harakatalari ham asarda keltirib o'tilgan.

Bobur iste'dodli shoir bo'lganligi hamda u moddiy boylik uchun kurashadigan shoh emas, balki bilim boyligi uchun kurashuvchi shoh deb tasvirlaydi. Haqiqatdan ham Bobur o'zga shohlar kabi madh etgan yerlarini, xalqini talatmagan, aksincha ularga el tutinib, ko'nglini olishga, turmush tarzini yaxshilashga uringan. Bobur o'zining shavkatliligi uchun "Yo'lbars" laqabini, hamda besh qirollik xazinasiga teng boyligini bechora va kambag'allarga bo'lib bergandan so'ng o'ziga Qalandarshoh taxallusini olganligini qayd etgan. Uning o'limi ham hayoti kabi mag'rur tarzda yakun topganligini tarixiy haqiqat asosida badiiy talqin ettirgan. Bundan tashqari, Bobur o'z hayotini sevimli farzandi Humoyun tirik qolishi uchun qurbon



qilganligini, umrining ohirida Bobur o'g'li Humoyunga "Ukalaringa qarshi borma (g'amho'rlik qil) hatto ular bunga loyiq bo'lmasada" degan fikrni bildirganligini ishonarli tarzda aks ettiradi.

Shu o'rinda aytish joizki, adiba asarlarini o'qigan har qanday kitobxon o'sha davrning hayot tarzini, tinch-osuda va farovon hayot yo'lidagi jangu-jadallarni, qirg'inbarot urushlarni, kishilar o'rtasidagi turli xil munosabatlarni, eng asosiysi, boburiylar saltanati ruhiyatini his qila oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda barpo etgan buyuk sulolaning tarixi va an'analari, yuksalishi va tanazzuli haqida ijob qilgan yana bir jahon adabiyoti vakillaridan biri Diana va Maykl Prestonlar bo'lib, ular hozirda Aleks Rezerford taxallusi bilan ijob qilishmoqda. Bu adiblar 2009-yildan buyon "Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi" rukni bilan tarixiy romanlarini nashr ettira boshlashdi. Mazkur rukn ostidagi romanlar Boburiylar imperiyasining shonli o'tmishi, muvaffaqiyatli va tanazzulga boy jangu-jadallari haqida hikoya qiladi. Ular ikki asrlik voqealarni o'z ichiga oladi hamda Boburiylar sulolasining olti nafar – har biri alohida *shaxs* sifatida e'tirof etilgan imperatorlari tarixini yoritib beradi. Ijodkorlarning ilk asari "Raiders from the North" ("Shimollik otliqlar") deb nomlanib, u 2009-yilda chop etilib muxlislarga taqdim etildi. Mazkur roman buyuk sarkarda, shoh va shoir Boburga bag'ishlangan bo'lib, unda Boburning Afg'oniston va Hindistonlarga yurishi, u yerlardagi hududlarda ulkan imperiyaga asos solganligi haqida hikoya qiladi. Shuningdek, buyuk sarkardaning jang maydonlaridagi jasorati, navkarlariga o'rnak bo'la olishi, rahnamolik qilib ulkan maqsadlarni ko'zlashi, go'zallikka bo'lgan ishtiyoqi dunyoning oltidan biriga teng keladigan darajadagi Imperiyaga asos solishi haqida ham bayon etiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, Boburiylar sulolasi nomi uzoq Yevropada hukmronlik va boylik ramzi sifatida hayrat bilan e'tirof etila boshlangan.

Diana va Maykl Prestonlar "Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi" rukni ostida yana bir qancha romanlar nashr ettirishadi. Bu romanlar Boburdan keyingi sulola vakillari bo'lmish uning to'ng'ich o'g'li Humoyunshohga atab "Brothers at War" ("Og'alar jangi"), oqil podshoh Akbarshohga bag'ishlab "Ruler of the World" ("Dunyo hukmdori"), o'z suyukli rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga bag'ishlab ajoyib Toj Mahalni bunyod ettirgan Shoxjahon haqida "The Serpent's Tooth" ("Ilonning tishi") va boshqa hukmdorlarga bag'ishlangan bo'lib, ular haqida hikoya va ma'lumotlar keltirishadi.

Yuqorida keltirilgan asar va romanlarning barchasi "Boburnoma", "Humoyunnoma", "Akbarнома" asarlariga asoslangan bo'lib, mualliflar ularni yaratishda Hindistonga qilgan sayohatlari davomida mahalliy xalq vakillari xotiralari, eshitgan va kutubxonalardan olgan ma'lumotlarga tayanganlar.

Shunday qilib, Bobur va uning 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan boburiylar sulolasiga asos solgani nafaqat o'z yurtimizda va shuningdek butun dunyo bo'ylab hali hanuzgacha katta ehtirom ila talqin etilishini ikki omil orqali izohlash mumkin. Birinchisi, Boburning o'zidagi harbiy mahorati bilan Hindistonni zabt etishi va hind yerlarida amalga oshirgan ezgu amallaridir. Darhaqiqat, Bobur Hindistonni qo'lga kiritgandan so'ng xalqiga bosqinchi va talonchilarcha munosabatda bo'lmadi, aksincha davlat xazinasini o'z manfaati yo'lida emas yurt ravnaqi uchun, obodonchilik ishlariga sarfladi. Shu bilan bir qatorda Hindistonda pochta-alloqa sohasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi, vayron bo'lgan joylarni ko'kalamzorlashtirdi, hozirda ham mashhur bo'lgan bog'lar yaratdi, yo'llarni yaxshiladi, o'z yurtidan hunarmand kishilarni olib kelib arxitektura Movarounnaxr me'morchilik uslubini qo'lladi. Hind xalqining diniy va



milliy urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lib, vaqti kelganda yomon odatlariga o'zgartirishlar kiritdi. Xullas, ota yurtida amalga oshirolmagan barcha ezgu amallariyu bunyodkorlik ishlarini shu yurtda bajarishga bor kuch va matonatini sarfladi.

Ikkinchi omil esa, Boburning serqirra ijodkor va iste'dodli dilbar shoir bo'lganligidadir. Bir tanda ikki mashaqqatli vazifani ado etish o'ta mushkul vazifa edi. Shohlik majburiyati ostida ko'ngli istamagan ishlarga rozilik berib shu kabi qalb azoblarini unutish uchun ijod olamiga sho'ng'ir edi. Kezi kelganda shohlikdan voz kechib oddiy odamlardek hayot kechirishni, doim ijod olamida bo'lishni istardi, lekin temuriy shahzda bo'lib tug'ilganligi, davlat ishlariga bo'lgan mas'uliyati bunga yo'l qo'ymasdi. Umri davomida yaratgan buyuk asarlari, masnaviylari, g'azal va ruboiylari hozirgacha kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Notiqlik san'atida ham juda qobiliyatli bo'lib davralarda do'stu dushmanga munosib tarzda she'riy usulda javob qaytarishi ko'plab asarlarda keltirilgan. Bugungi kunda Boburning butun umri davomida ko'rgan kechirganlarini bitgan shoh asari bo'lmish "Boburnoma" uning hayot faoliyatini o'rganishda va u haqida asarlar yaratishda o'zbek yozuvchilari uchun ham va albatta jahon tarixshunos olimlari uchun ham hamisha dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

References:

1. Boltaboev H. Xorijda Boburshunoslik. –T.: 2008. - B 73.
2. Ibrohimov A. Boburnoma-buyuk asar. –Toshkent: 2000. - B 13.
3. Matyoqubova D. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Ma`ruzalar matni. AnDU. 2008. 7-b
4. Qoraboyev M. Boburiylar sulolasi haqida yangi badiiy asarlar. Maqola. Namangan 2018.
5. Qoraboyev M. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.
6. Dilorom salohiy. Boburning buyuk e'tiqodi. Samarqand 2019.
7. Sahodillayeva S.A. Inglizabon tarixiy-adabiy asarlarda Bobur mirzo talqini. Maqola. Namangan 2023.
8. Xayrullayeva K.R. Ingliz, hind va o'zbek romanlarida bobur xarakterining badiiy tadriji. Maqola. Buxoro.